

TA'LIMDA INSONPARVARLIK TAMOIYILLARI

Baratov Rashit O'sarovich

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD.

Tel. +998507039038, brashitbek76@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo respublikalarida oliy ta'lim tizimida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, mintaqadagi oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtirokini yaxshilash yo'lidagi kurash va o'zaro raqobat tendensiyalari chuqur tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston va Qozog'iston oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifati, bandlik masalalari hamda ilmiy tadqiqotlar bo'yicha qiyosiy tahlili keng yoritilgan. Ma'lumki, ta'lim va tarbiya sohasida har qancha ilmiy tadqiqot olib borilsa ham, bu jarayon doimiy va yangilanishga moyil bo'lib, boshqa sohalardan ajralib turadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot XXI asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo mamlakatlarida oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, transformatsiya, integratsiya, ilm-fan, ta'lim dasturlari, ta'lim sifati, hamkorlik, ma'rifat, ta'lim texnologiyalari.

Zamonaviy dunyoda inson kapitaliga sifat jihatdan talablar kun sayin ortib bormoqda. Bu global iqtisodiyot, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. zamonaviy dunyoda inson kapitali faqat kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan chegaralanmaydi. Ushbu talablar shaxsning ko'p qirrali rivojlanishini, shu jumladan intellektual, emotsional, ijtimoiy va axloqiy jihatlarni qamrab oladi. Buning uchun doimiy o'rganish, moslashuvchanlik va yangilanish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo mamlakatlarining o'zaro integratsiyasi global muammolarni hal qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu borada xalqaro tashkilotlarning o'rnini va roli beqiyosdir. Ayniqsa Birlashgan Millatlar Tashkilotining yetakchilik maqomi global hamkorlikni kuchaytirishda asosiy vositalardan biridir. BMTning «Barqaror rivojlanish maqsadlari»da keltirilgan vazifalar jahonda kechayotgan global inqirozlarni oldini olishda,

davlatlarning o‘zaro integratsiyasida asosiy yechim sifatida qaralmoqda. Shu o‘rinda BRM haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tish joiz.

BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari - bu 2015 yilning sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 70-sessiyasida qabul qilingan “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi” doirasidagi 17 ta global maqsaddir[1].

Zamonaviy dunyo ilm-fanida yuqori natijaga erishishda albatta, samarali metodologik yondoshuvlar zarurati paydo bo‘ladi. Ilmiy-nazariy maqola tayyorlashda asosan bir qator ilmiy metodlardan foydalaniladi. Xususan, mazkur maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil metodidan samarali foydalangan holda Markaziy Osiyodagi Qozog‘iston va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi yondoshuvlar, rivojlanish dinamikasi, sifatli ta’lim masalasiga yechimlar o‘zaro qiyoslash orqali tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur maqolani tayyorlashda struktur-funksional tahlil, kontent tahlil, umumiy aloqadorlik, tarixiylik, mantiqiylik kabi qator ilmiy metodlardan ham samarali foydalanildi. Mazkur maqola ilmiy, tahliliy hamda konstruktiv xarakterga ega bo‘lib, ushbu maqoladan pedagogika, siyosatshunoslik, falsafa, sotsiologiya yo‘nalishida tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar keng foydalanishi mumkin.

Bugun insoniyat ko‘plab global muammolarga duch kelmoqda. Bunday muammolarga qarshi kurashda albatta, sifatli ta’lim, tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Global dunyoda ta’lim sifatiga e’tibor yanada ortib borayotgan bir paytda mamlakatlar oliy ta’lim muassasalari xalqaro reytinglarda o‘z mavqelarini saqlab turish uchun katta raqobat maydoni vujudga keldi.

Qozog‘iston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni 2007 yil 27 iyul kuni qabul qilindi. Ushbu qonun Qozog‘istonda ta’limning asosiy tamoyillari, yo‘nalishlari, tashkil etilishi va rivojlanishi, shu jumladan o‘quv jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, ta’lim muassasalariga qo‘yiladigan talablar, shuningdek ta’lim sohasidagi davlat nazorati masalalarini tartibga soladi[7].

Umuman ta’lim xususida Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasida “Fuqarolarga davlat ta’lim muassasalarida bepul o‘rta ta’lim kafolatlanadi[3]. O‘rta ta’lim majburiydir. Fuqaro davlat oliy ta’lim muassasasida tanlov asosida bepul oliy ma’lumot olish huquqiga ega. Xususiy ta’lim muassasalarida pullik ta’lim qonun

hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda beriladi. Davlat ta'limning umumiy majburiy standartlarini belgilaydi. Har qanday ta'lim muassasasining faoliyati ushbu standartlarga mos kelishi kerak" – deb belgilab qoyilgan. Ma'lumot uchun Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi 1995-yil 30-avgustdagi Referendumda tasdiqlangan bo'lib, 9 ta bob, 98 ta moddadan iborat[3]. E'tiborlisi, har ikkala respublikalar bosh qomusida fuqarolarning ta'lim olish huquqlari kafolatlanganini ko'rishimiz mumkin.

Qozog'iston Respublikasida 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra jami 135 ta oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda. Shundan 55 tasi davlat va 80 tasi xususiy oliy ta'lim muassasalari bo'lib, bugungi kunda 600 000 talaba ushbu universitetlarda tahsil olib turibdi.

Qozog'iston universitetlari ko'plab xalqaro reytinglarda (masalan, QS World University Rankings) faol qatnashadi va xorijiy universitetlar bilan yaqindan hamkorlik qilib keladi.

Markaziy Osiyoda Qozog'iston Respublikasi Boloniya jarayoniga birinchilardan qo'shib, bakalavr, magistr va PhD darajalarini joriy qildi.

Qozog'istonda inklyuziv ta'limga keying yillarda e'tibor kuchaymoqda. Ya'ni, Qozog'istonda inklyuziv ta'lim strategiyasi nogiron bolalarning oddiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta'lim muassasalarida rivojlanishiga yordam beradigan turli usul va amaliyotlarni joriy etishni o'z ichiga oladi. 2015 yilda Qozog'iston inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini, 2016 yilda esa mamlakatda inklyuziv ta'limning konseptual asoslarini qabul qildi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalarning oddiy maktablarda ta'lim olish huquqini belgilaydigan ta'limga oid qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritildi[7].

O'zbekiston xususida to'xtalganda oliy ta'lim tizimidagi asosiy o'zgarishlar mamlakat prezidenti Sh.Mirziyoyev davridan keskin pallaga chiqdi. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda "Ta'lim - birlamchi" g'oyasi asosida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish yuzasidan harakatlar boshlandi[6]. Bu davlat oliygohlari bilan bir qatorda xususiy oliygohlarni tashkil etilish orqali hal etildi. Yoshlarni oliygohlarga qabul kvotalari karrasiga oshirib borildi.

2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 93 ta davlat oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 64 ta xususiy oliy ta'lim muassasalari ham har yili minglab

abituriyentlarni o'z bag'riga olmoqda. Shunday qilib, O'zbekistonda bugungi kunda jami 160 ga yaqin davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari yoshlarni turli zamonaviy mutaxassisliklar boyicha ta'lim berib kelmoqda[18].

Har ikki mamlakat ta'lim qonunchiligida inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunining 20-moddasida "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi"[4] – deb belgilab qoyilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'lim faol rivojlanmoqda. Bu ijtimoiy integratsiyaning muhim qismi bo'lgan alohida ehtiyojli bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha bir necha qadamlar qo'yildi:

1. Qonunchilik tashabbuslari: mamlakat inklyuziya masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqdi va qabul qildi. 2018 yilda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun qabul qilindi, unda maxsus ta'lim yehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish bilan bog'liq qoidalar mavjud.

2. Maktablarda maxsus sharoitlar yaratish: ta'lim muassasalarida nogiron bolalar uchun sharoitlar, shu jumladan maxsus jihozlangan o'quv xonalari va moslashtirilgan o'quv materiallari yaratila boshlandi.

3. O'qituvchilar malakasini oshirish: o'qituvchilar O'zbekistonda alohida ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlash uchun faol o'qitilmoqda. Bunga kasbiy rivojlanish ham, ushbu sohada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarini yaratish ham kiradi.

4. Ota-onalar va jamiyat bilan ishlash: inklyuziv ta'limning muhim yeleменти ota-onalarga va butun jamiyatga alohida yehtiyojli bolalarning ta'lim olish uchun teng huquqli huquqi to'g'risida ma'lumot berishdir. Bu borada davlat va jamoat tashkilotlari faol ish olib bormoqda.

5. Umumiy maktablarga integratsiya: alohida ehtiyojli bolalarni boshqa bolalar bilan birga o'qiydigan oddiy maktablarga birlashtirish bo'yicha loyihalar mavjud. Bu nogiron bolalarning ijtimoiylashuvini yaxshilashga va jamiyatdagi to'siqlarni yengishga yordam beradi.

6. Texnologik yechimlar: so'nggi yillarda elektron va raqamli platformalar kabi maxsus ta'lim texnologiyalari, shuningdek, maxsus o'quv ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar joriy etildi[6].

Shunday qilib, O'zbekistonda inklyuziv ta'lim rivojlanmoqda va hukumat alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun sharoitlarni yaxshilash, ularga qulay va qulay sharoitlarda ta'lim olish imkoniyatini berish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy dunyo talablariga moslashtirish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan[9]. Kelgusida ikkala mamlakat ham xalqaro ta'lim va ilmiy hamjamiyatlar bilan aloqalarni mustahkamlashda davom etishi kutilmoqda, bu esa ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga va bitiruvchilarning jahon mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

REFERENCES:

1. United Nations.Sustainable Development. <https://sdgs.un.org/goals>.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil, 1-may. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
3. Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi 1995-yil 30-avgust https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil, 23-sentabr, O'RQ-637. <https://lex.uz/docs/-5013007>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " "O'zbekiston - 2030" Strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil, 11-sentabr. <https://lex.uz/docs/-6600413>
6. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси // <https://lex.uz/uz/docs/4545884?ONDATE=30.04.2020>

7. ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН Об образовании с изменениями и дополнениями по состоянию на 10.09.2023 г.

https://www.kaznpu.kz/docs/docs/obraz_rus.pdf

8. Об утверждении Концепции развития высшего образования и науки в Республике Казахстан на 2023 – 2029 годы. Постановление Правительства Республики Казахстан от 28 марта 2023 года № 248./

<https://adilet.zan.kz/rus/docs/P2300000248>

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг, 20.04.2017 йилдаги ПҚ-2909-сон “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори// <https://lex.uz/ru/docs/3171590?ONDATE=30.09.2017>

10. Токаев К.-Ж. Выступление на заседании национального совета по науке и технологиям при Президенте Республики Казахстан//

<https://www.akorda.kz/ru/vystuplenie-kasym-zhomarta-tokaeva-na-zasedanii-nacionalnogo-soveta-po-nauke-i-tehnologiyam-pri-prezidente-respubliki-kazahstan-123423>

11. Отамуротов С.О., Отамуротов С.С. Ўзбекистонда маънавий-рухий тикланиш. - Тошкент.: Янги аср авлоди, 2003.

12. "One Belt - One Road" Initiative - as a Modern Transport Logistics Baratov, R., Nuriddinov, S., Tokhtaboev, E., Achilova, G. 2022 AIP Conference Proceedings 2432,030058 <https://doi.org/10.1063/5.0089703>

13. Evolution of Railway Construction Development in Uzbekistan: Past and Prospects Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., Mamajanova, G. 2022 AIP Conference Proceedings 2432,030011 <https://doi.org/10.1063/5.0090845>

14. Constructive and Optimal Solutions for the Formation of a Stable Ecological Situation in the Aral Sea Region of Uzbekistan Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., Artikova, B. 2022 AIP Conference Proceedings 2432,030113 <https://doi.org/10.1063/5.0091203>

15. Махмудова Г.Т. От образования к мировоззрению: ценностная ориентация молодежи //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 32. – С. 179-184.;

16. Davronov S. Z. Problems in the system of assigning allowances in Uzbekistan and the ways of their solution //International Journal of Management IT and Engineering. 2020. – Т. 10. – №. 3. – С. 35–46.;

17. Хакимов Н. Х., “Реформирование высшего образования в контексте нового этапа развития Узбекистана” Аудиторские ведомости 3 (2024): 210-215.;

18. Amridinova D. T. The Role of Digital Economy and its Impact on Online Education in Uzbekistan //American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157). – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 64–70;

19. Асадуллина Н.Р., Павлов К.В. Модель инновационного развития высшего образования в условиях цифровизации экономики узбекистана // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. 2023. №6-2.;

20. Тўхтаева З.Ш., Каноатова Д.С., Жамолов Ж.Т. Интеграционные процессы в развитии системы высшего образования в узбекистане // Вестник магистратуры. 2019. №4-3 (91);

21. Рахимова Д.У., Убайдуллаева Д.О., Жамолидинова З.М. Трудности внедрения новых педагогических технологий в учебный процесс // Теория и практика современной науки. 2018. №6 (36).